

KABIROVA Nargiza Kaxramonovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Sharq mamlakatlari adabiyoti va
qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida
dosenti v.b., PhD
n.kabirova.88@gmail.com

AFG‘ON YOZUVCHISI ASADULLO HABIBNING “آفتاب گرفتگی” (“QUYOSH TUTILISHI”) HIKOYASIDA PEYZAJ TASVIRI

ОПИСАНИЕ ПЕЙЗАЖА В РАССКАЗЕ АФГАНСКОГО ПИСАТЕЛЯ АСАДУЛЛО ХАБИБА “آفتاب گرفتگی” («ЗАТМЕНИЕ СОЛНЦА»)

DESCRIPTION OF LANDSCAPE IN THE STORY “آفتاب گرفتگی” (“ECLIPSE OF THE SUN”) BY AFGHAN WRITER ASADULLO HABIB

Annotatsiya. Zamonaviy Afg‘oniston yozuvchisi Asadullo Habib asarlarida asosan nochor xalq vakillarini bosh qahramon sifatida tanlab olingan, hayotning bor qiyinchiliklarini boshdan kechirgan kambag‘al insonlarning ayanchli ahvoli ro‘yi-rosti va ta’sirli yoritilgan. Adibning badiiy tasvir mahorati naqadar beqiyos ekaniga birgina “آفتاب گرفتگی” (“Quyosh tutilishi”) hikoyasini tahlili davomida guvoh bo‘ldik. Jamiyat hayotidagi nuqsonlar, adolatsizlik, sinfiy tengsizlik sabab qashshoqlashgan oilalarning boylar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lishi, kuzatishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: hikoya, badiiy tasvir, peyzaj, portret, kompozitsiya, obraz, ramz, inson ruhiyati.

Аннотация. В произведениях современного афганского писателя Асадулло Хабиба бедные люди часто предстают в качестве главных героев. Он мастерски изображает жизнь бедных людей, которые, столкнувшись с тяготами жизни, не теряют человечности. Ярким примером этого служит его рассказ «آفتاب گرفتگی» («Солнечное затмение»). Анализируя этот рассказ, мы видим, как автор с помощью своего мастерского художественного описания раскрывает проблемы

общества: несправедливость, классовое неравенство, эксплуатация бедных семей богатыми.

Ключевые слова: рассказ, художественный образ, пейзаж, портрет, композиция, образ, символ, психика человека.

Annotation. In the works of the modern Afghan writer Asadullo Habib, mainly the representatives of the poor people were chosen as the main characters, and the miserable situation of the poor people who experienced all the hardships of life was truthfully and effectively covered. We witnessed the incomparable skill of the writer’s artistic imagery during the analysis of the story “آفتاب گرفتگی” (“Sun Eclipse”). We can observe that families impoverished due to defects in society, injustice, and class inequality are toys in the hands of the rich.

Key words: story, artistic image, landscape, portrait, composition, image, symbol, human psyche.

KIRISH

Hikoya jahon xalqlari badiiy tafakkuri tarixidan to bugungacha izchillik bilan shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlanayotgan faol nasriy janr hisoblanadi. Qadimgi va o‘rta asrlardagi hikoyachilik janrining ilk namunalarini diniy va mifologik asarlarda, xalq og‘zaki ijodiyotida, keyinchalik mumtoz adabiyot turlari tarkibida uchratamiz. Hikoyachilikning shakllanish jahon adabiyoti tarixidan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Ta’kidlash lozimki, zamonaviy afg‘on adabiyoti hikoyachiligining ko‘zga ko‘ringan zamondoshlari, safdoshlarining ijodiy yuksalishlari bilan hamnafas holda takomillashib bordi.

ASOSIY QISM

Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyoga kelgan, uning ayanchli sinovlarini boshdan kechirgan hamda o‘zining serqirra ijodi bilan afg‘on adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan yozuvchi Asadullo Habib ko‘plab hikoyalar qatori “Quyosh tutilishi” hikoyasida ham o‘sha davrning ijtimoiy muhitidagi tushkunlik va umidsizlikni ramziy ifodalar bilan go‘zal tarzda yoritib bergan. Ushbu hikoya “Uch batrak” hikoyalar to‘plamini ichidan joy olgan. Hikoyadagi har bir obraz ramziy ma’noga ega. Hatto hikoyaning o‘zi “آفتاب گرفتگی” [1], p.] (“Quyosh tutilishi”) deb nomlanadi, biroq

hikoyaning ichida ushbu tabiat hodisasi orqali hali turmushga chiqmagan, xalq tili bilan aytganda, “qari qiz” bo‘lib qolgan 18 yoshli qizning ichki kechinmalari qalamga olingan. Asar qahramoni pessimistik kayfiyat egasi u chuqur ruhiy iskanjalar fonida aks ettiriladi.

چه خورشید مسخ شده و وحشت آور به نظر می رسيد. شعاع سنگين و نفرت آن خسته و نیمه جان بروی بامها، میان حویلیها و دامن دشتهای پهناور افتاده بود. کرانه های افق - آن نقطههایی، دور، دشت که در آن ابرها چون توده های پنبه به زمین نزدیک میشوند، زیر غبار آبی و ناز کی مغشوش مینمود و درختان و بته های تشنه و کم آب آن با شاخه های کج و شکسته به سپاه هزمت خورده پی شباهت داشت. [61.p,2]

“*Quyoshning yuzi buzuq va dahshatli ko‘rinardi. Uning og‘ir va nafratli nurlari charchagan va nimjon holda tomlarga, qasrlar va keng tekisliklarning etaklari orasiga tushar edi. Ufqning chekkalari – tekislik atrofidagi nuqtalar, u yerga paxta uyumlaridek yaqin bo‘lgan bulutlar ko‘m-ko‘k va yupqa chang ostida sarosimaga tushib qolgan, chanqagan va suvsiz dala va dalalarda esa o‘sha armiya tomonidan qiyshiq va singan shoxlar mag‘lub bo‘lgan*”.

Hikoya boshidanoq ijodkor qahramon qalbidagi kechinmalar shu qadar og‘riqli ekanligini kitobxonga atiga birgina jumla orqali yetkazmoqda. Bu esa Asadullo Habibning naqadar kuchli hikoyanavis ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, quyoshning yuzi daxshatli ko‘rinishi va nurlarining nafratli ko‘rinishi esa metanimiya hisoblanib, barchaga, odamlar-u hayvonot olami, hatto butun o‘simlik olamiga foydali bo‘lgan quyosh hamda uning nurlari inson qalbidagi o‘kinch va g‘am-anduh tufayli daxshatli va keraksizdek tuyulishi yuksak mahorat bilan ifodalangan. Yuqoridagi jummalarda muallif metaforadan foydalanib, ufqdagi bulutlar yerga yaqinligini paxta uyumlariga o‘xshatib, ko‘m-ko‘k va yupqa chang ostida sarosimaga tushib qolganligini – ilojiy vaziyatda insonlar nima qilishini bilmay qolishi, vaziyatdan qanday chiqishini bilmay esankirab qolishini benuqson o‘xshatishlar bilan ifodalagan. Bu gapning mohiyatiga real ahamiyat beradigan bo‘lsak, paxta uyumlaridek to‘p-to‘p bulutlar asrlar davomida ezilgan afg‘on xalqi hududiga bostirib kelgan, tinchligiga, xotirjamligiga rahna solgan yov qo‘shinlari qonxo‘rlarga o‘xshatilmoqda.

Chindan ham adibning hech bir hikoyasida baxtdan ko‘zlari kulgan, qalbi quvonchga to‘lgan, o‘tmishi-yu kelajagida musibatsiz hayot kechirgan badiiy obrazlar ya‘ni asar qahramonlarini uchratmaymiz. رنگ آفتاب نارنجی و خشن بود چهره های مردم درخشد کی خاصی داشت آثار ترس و پشیمانی در نگاه شان مشاهده میشد. گویی درختان و سبزه های زرد و خشک تابستانی نیز بوی گناه و عصبان استشمام میکردند و به خجلت سرهای خود را تکان میدادند. آواز دعا وزاری ریش سفیدان با فریاد وگریه کودکان ترسیده می آمیخت و بسوی آسمان بالا میرفت. همگی از کار و جنبش دست گرفته به چهره نیم سیاه و مشتعل خورشید عاجزانه نگاه میکردند.

“*Quyosh rangi to‘q sariq va qo‘pol, odamlarning chehrasi porlab turar, ularda qandaydir o‘ziga xoslik bor, ko‘zlarida qo‘rquv va pushaymonlik izlari ko‘rinib turardi. Sariq va quruq yoz daraxtlari, ko‘katlar gunoh va isyon hidini sezib, uyatdan bosh chayqagandek edi. Oppoq soqollilarning ashulasi qo‘rqib ketgan bolalarning hayqiriq va faryodlariga qo‘shilib, osmonga ko‘tarildi. Ularning barchasi ishlarini, harakatlarini to‘xtatib, quyoshning yarim qora va olovli yuziga nochor qarashdi*”[3.p.17].

Asadulla Habibning “Quyosh tutilishi” hikoyasida dinamik peyzaj tasviri yetakchilik qiladi. Asarda nafaqat tabiat manzaralari, joy tasvirlari bo‘lishidan tashqari, qahramon ruhiyatini yanada yorqin ochib beruvchi muhim vosita, qahramonning tashqi hamda ichki portretini tabiat lavhalari, hayvonot, qushlar, toshlar, daraxtlar va maysalar, osmon jismlariga o‘xshatish orqali ham tasvir yanada originallikka erishiladi. Yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o‘rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o‘quvchiga ta‘sir etishni, undagi go‘zallik tuyg‘ularini tarbiyalash ham ko‘zda tutiladi. Peyzaj tasvirining qahramon xatti-harakatlari bilan uyg‘un kelishidan tashqari, kitobxon qalbiga ta‘sir o‘tkazuvchi tarbiyaviy, ma‘rifiy va estetik vazifasini o‘tash ta‘kidlangan. زمین شرمگین و خاموش، موردتاب آسمان واقع شده بود و هر گناهکار گمان می کرد به خاطر معاصی او خورشید نورانی در پنجه قهر الهی عذاب میکشمد. [71.p,4]

“*Uyalgan va jim bo‘lgan yer osmon tomonidan hukm qilindi va har bir gunohkor o‘z gunohlari tufayli yorqin quyosh ilohiy g‘azabining panjalarida azoblanadi, deb o‘ylardi*”.

Yuqoridagi gapda adib tashxis (jonlantirish) badiiy san'atidan mahorat bilan foydalanib, yer, osmon va quyosh singari tabiat jismlariga insonga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'chirib o'tmoqda. Ushbu jumalalarda peyzaj tasviri bosh qahramon ruhiyatini ochib berish uchun xizmat qilmoqda va jumalardagi chuqur ma'noni yana ikki xil talqin qilish mumkin:

Birinchidan, afg'on xalqi ko'p yillar davomida chet el bosqinchilari zulmidan aziyat chekib yashagan, mustamlakaga aylangan. Peyzaj tasviri adibning asosiy g'oyaviy niyatini ilgari surish uchun foydalanilgan.

Ikkinchidan, turmushga chiqa olmay qolgan qiz 18 yoshidayoq qari qiz bo'lib qolishi (butun umr juft topa olmagan)ni qaysidir qilgan gunohlari yaratganga yoqmaganligi sababli butun umrga juftsiz yashashga mahrum qilingan mahbusga qiyoslangan deb tushunishimiz mumkin.

میان گروه زنان و دختران روستایی ، دوشیزه جوانی ناراحت تر از دیگران مینمود. ده سال پیش گاهی که هشت ساله بود. بالای همین بام میان بسته های علوفه خشک و توده های خار گدیهای خود را می چید و جشن عروسی شان را برپا میکرد. اما حالا در قطار زنان و دختران جوان غرور جوانی در اعماق قلبش توفانها داشت. سرمه غلیظی میان چشمانش خفته بود. سرخی حنا بروی دستهایش روزهای عیدشان را بیاد می آورد. پیراهن گلدار سرخش نماینده نشاط جوانی او بود. [81.p.5]

“Qishloq ayollari va qizlaridan iborat guruhda yoshgina bokira qari qiz boshqalardan ko'ra ko'proq xafa bo'lib tuyulardi. 10 yil avval 8 yasharlik vaqtida, shu tomning tepasida quruq yem-xashak va olxo'ri uyumlari orasida o'tirib, o'z to'y marosimlarini o'tkazardi. Ammo endi, yosh ayollar va qizlar qatorida uning qalbida yoshlik g'ururi isyon qildi. Ko'zlari orasida quyuq surma yotqizilgan edi, qo'llaridagi xina qizarib, hayit kunlarini eslatardi. To'qilgan gulli ko'ylak uning yoshlik jo'shqinligini ifodalab turardi”.

Muallif oila qurish istagi bor, lekin buni butun umr amalga oshira olmagan bokira qizning orzulari armonga aylanishi mohirona tarzda ifodalagan. Har bir qiz uchun oiladek muqaddas rishta birinchi o'rinda turadi. Shirindan-shakar farzandlar ko'rish, ularni yurt koriga yaraydigan qilib tarbiyalashni istamaydigan qiz bo'lmaydi albatta. Hadislarda bitta farzandni dunyoga keltirishdagi to'lg'oq azobi uchun ayolga bir marta haj safari qilganlik

savobi berilishi bejiz emas. Eng achinarlisi shuki, butun qishloq ayollari va qizlaridan iborat guruhda yoshgina qizning 8 yoshligidan (aqlini taniganidan buyon) bittagina – “kelin bo'lish” orzusi butun umrga armonga aylangani, boshqalarning farzandlarini ko'rgan mahal o'ksinishchalik azob bo'lmasa kerak dunyoda.

Yuqoridagi keltirilgan gapda qiz va ayollarning ko'zlari orasida quyuq surma yotqizilishi, qo'llariga xina qo'yishlari hayit kunlarida bo'lishi aytib o'tilgan. Ma'lumki, hayit ayyomi bizning diniy bayramimiz hisoblanadi. Hamma yangi liboslar kiyib, xursandchilik qiladi. Qizning tashqi ko'rinishi qo'lidagi xina yoki libosidan aks etgan bayramona kayfiyat uning ichki mayusligiga qarama-qarshi tasvirlangan. Adabiyotshunos J.Eshonqulov inson ruhiyatidagi hissiyot va tuyg'ularni shunday ifoda etadi: “Inson ruhiyati juda keng olam bo'lib, undagi hissiyot va tuyg'ular ikki xil shaklda o'zini namoyon etadi: birinchisi anglangan, ma'lum mantiqqa ega, tashqi dunyoga nisbatan o'zining qat'iy xulosa va yo'nalishiga ega tuyg'ular. Bu tuyg'u insonning jamiyatga, odamlarga, atrof-muhitga munosabati va bu haqidagi ma'lum tushunchaga ega bo'lgan qarashlarni ifodalaydi; bularning barchasini ong sintez qilib beradi, ya'ni ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari, ongga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud, tashqi dunyo bilan tinimsiz aloqa qilib turuvchi hislar. Bu hislar inson harakati, ruhiyatining asosini tashkil etadi”[6,p.43]. Hikoya davomida qizning behalovat, bezovtaligi, yuragidagi qo'rquv, o'zini kechirilmas gunoh qilgandek his qilishi, va qalbidagi g'ashlik uzoq vaqtlardan buyon unga tinchlik bermayotgani, osmonning g'azabini gunohlarining sababchisi deb bilishi huddi suratdek chizilgan.

وی آنگاه که آخرین دسته موی سیاهش را چوئی کرد و انجام چوئی را زیر دندان فشرد، متوجه شد که بیش از دیگران ناراحت است. قلبش به شدت تپید. هراس و ترس فراوانی در وجودش دست یافته بود. فکر میکرد گناه نا بخشودنی کرده است. وی از چند ماه به این طرف چنین تصور میکرد. اما این وقت خشم آسمان را ناشی از گناهان خویش میدانست. آواز چند ماه پیش گناه خود را واضحاً حسن میکرد چون لکه گرم و آتشین روی قلب نا آرامش که هر لحظه سوزنده ترم میشد. چیز بی خاطرش گذشت. دزدیده دستش را بر سینه اش گذاشت. لرزش خفیفی بر تمام وجودش چیره شد و بی اراده آه سردی حنجره اش

دويد . حالت او چنان بود که چیزی گم کرده باشد. ترسی آمیخته با خجالت در این چند ماه همراه خون وی میان رگها پش حرکت میکرد و در ساعت‌های بیکار می و خاصه تنها بی لذت خفیف و گمشده بی با آن می آمیخت و باز نابود میشد.

“Qop-qora sochlarining so‘nggi uyumini tarab bo‘lib, taroqni tishlari orasiga bosganida, boshqalardan ko‘ra bezovta ekanini angladi. Uning yuragi qattiq urdi. Uning ichida juda ko‘p qo‘rquv bor edi. U xayolida kechirilmas gunoh qilgandek edi. U bir necha oylardan beri shunday o‘ylardi, lekin bu safar osmonning g‘azabini gunohlarining sababchisi deb bilardi. Bir necha oy oldin o‘z aybini his qilganligi sababli, har lahzada bezovta qalbidagi g‘ashlik yanada kuchayib boradi. Nimadir xayolidan o‘tdi. Qo‘lini yashirincha yuragiga qo‘ydi. Yengil titroq butun tanasiga yugurdi va qalbiga muzdek xanjar urilgandek bo‘ldi. Xuddi bir narsasini yo‘qotgandek edi. Shu bir necha oylardan buyon qo‘rquv va hijolat aralashgan hislar unga hamrohlik qilar, bo‘sh qolgan vaqtlarida ushbu hislar tanasini chulg‘ab olardi-yu, yana qo‘yib yuborardi.” [7,p.18].

Asadullo Habibning ushbu hikoyasidagi mavzu N.Eshonqul hikoyalarining mavzularni eslatadi. Muallif asarlarida o‘zligini anglash yo‘lida o‘z-o‘zi bilan raqobatga kirishgan shaxs qiyofasi, jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa olmagan alamzadaning ma‘naviy qiyofasi, uning alamlari, hissiy kechinmalari tamomila yangi rakurslarda ko‘rsatilishi e‘tiborga loyiqdir. Adibning “Maymun yetaklagan odam”, “Ajr”, “Ochilmagan eshik”, “Muolaja”, “Tobut”, “Og‘riq lazzati”, “Qo‘l”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” [8,p.120]. kabi o‘nlab hikoyalaridagi asar qahramonlarining xatti-harakati, holati, ichki ruhiy kechinmalari, asar qahramonlarining pessimistik kayfiyati va realistik tasvir uslubi har ikkala yozuvchining ijodidagi yaqinlikni yaqqol aks ettiradi.

Kunlarning birida o‘zidagi noma‘lum qayg‘u tumanlarini berkita olmayotgan qizning yosh to‘la ko‘zlariga notanish dehqon yigitning nigohi tushadi.

لرزش لبان مرطوبش که شکرخند جان بخشای را در خود می نهفت ، غبار اندوه ناخوانده که بدور چشمانش حلقه می زد ، همه این دو گونهگی ما بحر ان آتشی را نمابنده بود - بحر ان نهفتی و گوارایی که تنها در چنین احوال به سراغ دختر های جوان میآید. ناگاه نگاه جوان تنومندی که بالای دو نر گاو

چیر را بسته بطرف خرمن گندم روان بود، میان چشمان اشک آلود او فرورفت. عکس لبهای خشک دستار چرکین و پاره پاره و ابرو نسیا هس که چون دو مار بالای دیدگان و حشی ه کنجکاو او لمیده بود در قلب دختر روستا نشست . مگر نگاه آشنا بود؟

“Uning hayot baxsh etuvchi tabassumni o‘zida aks ettirgan ho‘l lablarining titrashi, ko‘zlari atrofida aylanib yurgan noma‘lum qayg‘u tumanlari, bu ikki holatning hammasi otashin ifodalangandi, bunday vaziyatlarda faqat yosh qizlarning boshiga tushadigan yashirin va shirin inqiroz. Birdan ikki ho‘kiz ustiga bog‘lab qo‘yilgan bug‘doyni eshak tomon siljitayotgan baquvvat bir yigitning nigohi uning yig‘lagan ko‘zlariga tushdi. Qurigan lablari, kir va yirtilib ketgan sallasi, ko‘zlari ustidagi ikki ilondek yotqizilgan qoshlari, his-tuyg‘ulari va qiziquvchanligi surati qishloq qizining yuragiga o‘tirdi. Nigohlar tanish edimi?” [9,p.19].

Ko‘zlari to‘qnashgan ikki yoshning qalbidan qandaydir o‘zgacha his-tuyg‘ular o‘tadi. Biroq, hech birlari so‘z demoqqa kuch topmay biroz jim qolishgandan keyin, yigit ortiga qaytib ketadi. Oradan 40-50-yillar sanoqli qadamlar bilan o‘tib boradi. O‘sha uchrashuvdan keyin qahramonlar taqdiri qanday bo‘ldi, ular yana uchrashdimi, yo‘qmi bu haqda adib hech qanday izoh bermaydi. Aslida ham hikoya qisqalik, voqealar siqiq ifodalanishi va qahramonlarning o‘tmish-u kelajagi to‘liq yoritilmasligi sababli ham boshqa janrlardan farq qiladi. Ushbu hikoyasida ham muallif oradagi voqealarni o‘zimiz xohlaganday tasavvur qilishimizni maqsad qilgan bo‘lishi ham mumkin. Hikoya yakunida oqsoqolga aylangan dehqon yigit xotiralarini yodga oladi.

پیر مرد نفس عمیقی کشید و بیاد آورد:

هان... بخار های کوچک بروی نقره بی و زیبا پش می برآمد... چند جت سیاه و ژولیده مو را آوردند تا با شاخکهای خود از بدن گرم و لطیفش خون بگیرند... او خون زیاد ضایع کرد و رفت... شاید او رفت که بسوی من نهند... و دیگر گناه نکند. بعد از آن آفتاب هم گرفته نشد. اگرچه من گنهکارم شاید او از من گنهکار تر بود.

یا آن هم خیلی دوستش داشتم او یگانه کسی بود که بسوی من می خندید عجیب می خندید. ما هرا نه و گرم کننده می خندید شهرم آلود و دلکش میخندید، یک لحظه بی و برق آسا و خیلی شور انگیز... از روزی که رفت پیامی هم برایش نفر ستادم هه هه هه هه هنوز برنده پیام بگور ستانها تعیین نشده و هنوز آنجاها نسیم گنگ و تندرو فراموشی سبز ها را می لرزاند.

“Qariya chuqur nafas olib, esladi: “Ha... Uning kumushrang va go‘zal yuzida kichik toshmalar chiqardi... uning sochlari to‘zigan, issiq va latif badanidan o‘z asboblari bilan qon olish uchun bir necha haltalarini keltirishdi... va u juda ko‘p qon yo‘qotib ketdi... Balki ustimdan kulib, yana gunoh qilmasin deb ketgandir. Shundan so‘ng, Quyosh ham tutilmadi. Shunday bo‘lsada men uni juda yaxshi ko‘rardim, u mening ustimdan kulardi, u ajib kulardi, uning kulgusi yoqimli va insonlar yuziga tabassum keltiradigan kulgu edi. Juda uyalgan va iboli tarzda kulardi. Bir soniyalik barq urgan qo‘ng‘iroqdek kulgusi bor edi. U ketgan kundan beri men unga biror xabar yubormadim. Ha, ha, ha... hali hanuz qabrisonlarga xabar olib boradigan parrandalar tayinlanmagan va hanuz ozor beruvchi, tez esadigan va esdan chiqadigan shamol maysalarni tebratadi.” [10,p.20].

Hikoyada kuzatganimiz, dehqon yigit qalbida qizga nisbatan muhabbat kurtaklari bo‘lgan, biroq bu sevgi visolga yetolmagan. Qiz qandaydir bizga noma‘lum kasallikdan vafot etadi, lekin uning kulgulari yigitning aslo yodidan ko‘tarilgan emas. Qarib, sochlari oqarganda ham o‘z sevgilisi xotiralari bilan xursand. “Shundan so‘ng, Quyosh ham tutilmadi.” Demak, qiz ich-ichini ezayotgan qayg‘u-dariddan xalos bo‘lib ketadi. Hikoyani shunday yakunlash orqali, yozuvchi majozan afg‘on xalqi boshi uzra suzib yurgan qora bulutlar bir kun albatta yo‘qolishi va porloq quyosh zamin uzra zarrin nurlarini sochishidan umidvorligini ifodalamoqda.

XULOSA

Asadullo Habib ijodi afg‘on dariyzabon nasrining an‘analarini yangilashi, unga yangi, zamonaviy obrazlar, yangicha bayon shakllarini olib kirishi bilan o‘ziga xosdir. An‘anaviy Afg‘oniston nosirlaridan farqli o‘laroq adibni ko‘proq inson ko‘nglida kechayotgan jarayonlar tasviri qiziqtiradi. Voqeani emas, voqelikka nisbatan ichki psixologik munosabatni ifodalash ustuvor o‘rinda turadi. Shu bilan birga yozuvchi qahramon ruhiyatida kechayotgan jarayonlar ifodasini turli lavhalar tasviri bilan boyitadi. Adib murakkab hayotiy masalalarni personajlar hayoti misolida ko‘rsatishni o‘z oldiga badiiy maqsad qilib

qo‘yadi. A.Habib inson qalbini bezovta etayotgan turli-tuman iztirobli lavhalarni ta’sirli badiiy vositalar yordamida namoyon etadi. Uning ijodi haqida yuqorida tilga olingan barcha xususiyatlar bevosita zamonaviy dariyzabon hikoyachiligining taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶.
2. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶ - ص ۱۶.
3. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶ - ص ۱۷.
4. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶ - ص ۱۸.
5. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶ - ص ۱۸.
6. Eshonqulov J. Ruhiy tahlil metodi xususida // O‘zbek tili va adabiyoti. 1997. 2-son. – B. 43.
7. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶ - ص ۱۸.
8. Eshanqul N. The man who led the monkey. –T.: Yangi asr avlodil, 2004. – p. 120.
9. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶ - ص ۱۹.
10. اسد الله حبيب. سه مزدور. ۱۳۶۶ - ص ۲۰.